

DARSDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARDA XALQ GEOGRAFIK TERMINLARNI O‘RGANISH METODIKASI

Charos Ikromovna Mahmudova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Geografiya kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

azkur maqolada geografiya ta’limida darsdan tashqari mashg‘ulotlarda xalq geografik terminlaridan foydalanishning ahamiyati keltirib o‘tilgan bo‘lib, bunda o‘quv jarayonlarida toponimik ma’lumotlardan to‘g‘ri foydalanish geografiya fanining asosiy tarkibiy qismi ekanligiga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, geografiya fanida joy yoki geografik obyekt nomi bog‘lanmasdan bilim berish mumkin emasligi, har bir joy tabiatining bir-biridan farqli jihatini qiyoslash uchun ham joylar nomini bilish zarurligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: geografik obyekt, termin, toponim, atama, “Tosh” va “Kent”, Timchi, Tuzun, Emchi, modulli ta’lim texnologiyasi, makromodul, mezomodul, mikromodul.

ABSTRACT

This article emphasizes the importance of using folk geographical terms in extracurricular activities in geographical education, with particular emphasis on the fact that the correct use of toponymic information in the educational process is a key component of geographical science. In particular, geography emphasizes that knowledge cannot be given without reference to the name of a place or geographical feature, and that it is necessary to know the names of places in order to compare the various aspects of the nature of each place.

Keywords: geographical feature, term, toponym, term, “Tosh” and “Kent”, Timchi, Tuzun, Emchi, modular learning technology, macromodule, mesomodule, micromodule

KIRISH

Geografiya fanining rivojlanishida mukammal o‘rganilgan va ilmiy asoslangan xalq geografik terminlarning ahamiyati benihoyat katta. Xalq geografik terminlar yordamida voqea-hodisalarning sabab va oqibatlarini aniq va tez ilg‘ab olish mumkin, chunki terminlarda ularning ixcham tavsifi mujassam. Geografiya fanida biror hodisa yoki voqeani tushuntirishda albatta joy nomi bilan bog‘lab ma’lumot beriladi. Aslini olganda,



geografik nomlar orqali yer yuzini geografik o'rganish tarixini ham aniqlash mumkin. Shuningdek, ko'pgina geografik nomlar yer yuzasi relyefini, o'simliklari va hayvonot dunyosini, tabiiy hodisa va tarixiy voqe'liklarni, aholining urf-odatlarini hamda mashg'ul bo'lgan kasb-korlarini o'zida aks ettiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Geografik nomlar to'g'risida eng qadimgi ma'lumotlar ham dastlabki geografik bilimlar kabi Gerodotning "Tarix", Strabonning "Geografiya" asarlarida berilgan. Dunyo fanida toponimik ma'lumotlarga ilmiy yondashuv dastlab buyuk allomalarimiz Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Xojib, Mahmud Koshg'ariy, M.Narshaxiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Boburning asarlarida kuzatiladi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", deb ataluvchi asari uch tomdan iborat. Uning muallifi qoldirgan izohga ko'ra har uchala tom hijriy hisob bilan 469 yilgacha yozib bitirilgan .

Xorijda joy nomlarining nazariy va mintaqaviy xususiyatlari bilan shug'ullangan olimlardan fransuz tilshunosi Albert Dauzat alohida keltirish mumkin. Fransuz tili tarixi bilan shug'ullangan bu olim joy nomlarining etimologiyasiga ham katta e'tibor qaratgan. Ingliz tilidagi joy nomlariga oid adabiyotlarda A.Room, G.B.Adams, M.Gelling kabilarni sanab o'tish mumkin.

Modulli o'qitish bo'yicha pedagogika fanlarida mavjud nazariy ishlar N.N.Azizxodjaeva, R.X.Djuraev, G.V.Lavrentev, N.B.Lavrenteva, I.B.Sennovskiy va boshqalar, amaliy ishlar esa, X.B.Alimova, E.I.Ananeva, S.E.Korsheva, T.V.Kurbanova, L.G.Semenova, L.A.Suxanova, T.S.Suxovalar tomonida olib borilgan bo'lib, mazkur ishlar tahlilining ko'rsatishicha, modul o'quv fanining alohida tashkiliy-metodik tuzilmasi sanaladi va u o'z tarkibiga didaktik maqsad, mantiqiy tugallangan o'quv materialini birligini, fanlararo, kurs, bo'lim va mavzulararo uzviyligi asosida tashkil etilganligini, didaktik ta'minot asosidagi uslubiy rahbarlik hamda nazorat tizimini qamrab oladi.

Terminlar umumiy iste'mol so'zlaridan aniq bir ma'noni ifoda etishi, emosionallik xususiyatga ega emasligi kabi belgilar bilan farqlanadi. Ular qisqa, ixcham, aniq ma'noli, jarangdor, talaffuzda osonligi bilan alohida ajralib turadi. Shu sababdan, geografik terminlar ko'p qo'llaniladi va uzoq muddat saqlanib qoladi.

Bu borada geografiya fani kesimida darsdan tashqari mashg'ulotlarda Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asaridan foydalanish ham o'rinli. Chunki asarda keltirilgan xalq geografik terminlar asosida shakllangan joy nomlarini o'rganish orqali o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishi hamda xarita bilan ishlash ehtiyoji yanada

ortishiga sabab bo'ldi. O'quvchilarga avval ishni eng sodda va o'zi bilgan o'zakli toponimik atamalarning mazmunini ochib berishdan boshlab, uning qiziqishini uyg'ota olish lozim. Masalan, Vatanimiz poytaxti, Toshkent shahrining mazmuni "Tosh" va "Kent" – ya'ni toshdan yasalgan shahar mazmunini anglatadi [3, 91-b.]. Har bir geografik nomning mazmuni bilan o'quvchilarni tanishtirib borish imkoniyati dars vaqtining chegaralanganligi tufayli muammoligicha qoladi. Shunday holatlarda Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk", Zahiriddin Boburning "Boburnoma" asarlariga, S.Qorayevning "Geografik nomlar ma'nosi" kabi toponimik lug'atlarga murojaat qilish va shu orqali darslikdan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan foydalanishni o'quvchilarga o'rgatib borish yaxshi natija beradi. Masalan, Timchi [1, 11-b.] – ichimlik tayyorlovchi (Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanidagi Timchi qishlog'ining nomlanishi), Tuzun [1, 380-b.] — buloq suvini qishloq axllilariga taqsimlovchi, Emchi [1, 11-b.] — davolovchi tabib kabi atamalarning mazmunini o'rganish esa, qadimda avlodlarimiz shug'ullangan kasb-korlari bilan yosh avlodni tanishtirishga xizmat qiladi. Aynan shu xalq terminlari Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida keltirib o'tilgan. Zero, bunday kasb turlari zamonamizda asta sekin kam uchramoqda yoki unutilib bormoqda. Shu boisdan ularning ma'no-mazmunini o'rganish juda muhim. O'zbekistonda Oltintog', Oltinqazg'an, Tillatog', Zarmitan kabi nomlar uchraydi. Bu joylardan esa bir zamonlar oltin qazib olinganligi ma'lum bo'lgan [6, 4-b.]. Joy nomlarining kelib chiqishi, shakllanishiga qiziqadigan o'quvchilar bilan maxsus ravishda sinfdan tashqari mashg'ulotlar davomida qo'shimcha tarzda shug'ullanib, ularning qiziqishini yanada oshirish mumkin. Chunki ushbu asar turli nodir so'zlar, xalq geografik terminlariga shunchalar boy-ki, ularning barchasini o'rganish orqali zamonamizda mavjud bo'lgan ko'pgina ilmiy toponimik muammolarga yechim topish mumkin [4, 71-b].

Xususan, geografik nomlarning tarbiyaviy, ilmiy, siyosiy ahamiyati ham juda katta. Mamlakat siyosiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar uning xaritasida aks etib turadi. Misol uchun, mamlakatimiz o'z mustaqilligini yo'lga kiritgandan keyin uning xaritasida ham ko'plab o'zgarishlar yuz bergani barchamizga ma'lum. Mustamlakalik davridagi o'sha vaqtning siyosatini ifodalovchi, o'sha davr uchun xizmat qiluvchi geografik nomlar o'zgardi, o'z o'rnida istiqlolimizni, milliy qadriyatlarimiz va an'analarimizni ulug'lovchi geografik nomlar shakllandi hamda qayta tiklanishiga sabab bo'ldi.

Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarga xalq geografik terminlarning mazmunini yoritish uchun modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu texnologiya




modullarga asoslanib o'rganiladi hamda o'quvchilar blokli-modulli tuzilish loyihasi orqali reja asosida ish olib boradi. O'qituvchi tomonidan o'rganiladigan ma'lumotlarning loyihasi tuzib beriladi, o'quvchi esa darsliklar, qo'shimcha adabiyotlar, xaritalar hamda axborot vositalari yordamida ma'lumotlarni mustaqil to'playdi. Modul ta'limning asoschilaridan bo'lgan J.Russell modulga shunday ta'rif beradi: "U o'quv paketi bo'lib, o'quv materiali konseptual birligi sifatida o'quvchilarni harakatga chorlaydi" [5, 3-b].

Darsdan tashqari ishlarni olib borishda modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish borasida biror bir tanlangan mavzu yo'nalishi mantiqiy tugallangan fikrli qismlarga, ya'ni modullarga ajratiladi va har bir qismni o'quvchilar mustaqil o'zlashtirishlari uchun o'quv topshiriqlari tuziladi. Mazkur texnologiyani boshqa fanlar qatori geografiya fanlarida ham qo'llash samaralidir, chunki modulli ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini yengillashtiradi. Bunga sabab, bu metodika o'quvchilarning salohiyatiga xos tarzda, ularning o'rganishi qulay bo'lishi inobatga olgan holda rejalashtirib ishlab chiqiladi. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda bu metodikani qo'llash uchun Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida keltirilgan xalq geografik terminlarni modul sifatida oladigan bo'lsak, uni bitta makromodul, 13 ta mezomodul hamda bir nechta mikromodullarga ajratib o'rganish mumkin. Bunda albatta, makromodullar - mezomodullarga, mezomodullar - mikromodullarga ajratiladi. Har bir shakllangan joy nomlarining paydo bo'lishida muayyan sabablar ishtirok etadi. Aynan o'sha joy nomlarini shakllantiruvchi sabablar, geografik nomlarni guruhlariga ajratib o'rganishga imkon yaratadi. Shuning uchun xalq geografik terminlarni guruhlariga bo'lib o'rganishni, ya'ni joy nomlarning tasniflanishini mezomodullarga ajratiladi. Quyida (1-rasmga qarang) "Devonda" keltirilgan xalq terminlari orqali shakllangan joy nomlarining modulli tuzilish loyihasi berilgan.

Joy nomlarining geografik tasniflanishining har birini mezomodullar orqali mikromodullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir (2-rasmga qarang). Bu rasmda faqat joyning relyef tuzilishiga bog'liq holda shakllangan joy nomlarining mikromoduli ko'rsatilgan. Shu yo'nalish orqali joy nomlarining geografik tasniflanishini davom ettirish mumkin.

**“DEVON”DA KELITIRILGAN XTG TERMINLAR ORQALI
SHAKLLANGAN
JOY NOMLARINING MODULLI TUZILISHI
LOYIHASI**

1-rasm. Joy nomlarining geografik tasniflanish mezomoduli




Geografiya ta’limining sinfdan tashqari mashg‘ulotlarida bunday rejalashtirib o‘rganishning mohiyati shundan iboratki, bunda dasturiy materiallar yirik mavzu bloklariga bo‘linadi. O‘z navbatida modullarning har bir turi o‘zining kichik turlariga bo‘linadi. Natijada bu modul orqali o‘quvchilar xalq geografik terminlar asosida shakllangan joy nomlarini aniqlaydi va qiziqish bilan reja asosida mustaqil o‘rganadi.

Demak blokli-modul ta’limi:

- birinchidan, mavzuni blokli-modul ta’limida o‘rganish orqali o‘quvchi darslik ma’lumotlari bilan yanada yaqindan tanishadi hamda amaliy ishlarni reja asosida mustaqil bajaradi;

- ikkinchidan, har bir o'quvchida joy nomlarining mazmunini bilishga katta qiziqish uyg'otadi, ushbu qiziqish esa o'quvchining fanga bo'lgan e'tiborini kuchaytiradi.

2-rasm. Joyning relyef tuzilishiga bog'liq holda shakllangan joy nomlari mikromoduli



XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, modulli ta'limning asosiy mohiyati - o'quvchilar modul dasturlari yordamida mustaqil ishlashga asoslangan o'quv-bilish faoliyati orqali belgilangan maqsadga erishadilar. Chunki toponimik terminlarni o'rganish ushbu fanning kaliti sifatida uning predmet va o'rganish obyektlarini, maqsad va vazifalarini to'laroq ochib berish uchun xizmat kiladi.

Shu o'rinda aytish joizki, Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'atit turk” asarida keltirilgan xalq geografik

terminlarini maktabda sinfdan tashqari mashgʻulotlar orqali oʻrganish, oʻquvchi yoshlarni buyuk allomalarimizning ijod namunalaridan bahramand boʻlishdagi omillardan biri hisoblanadi.

REFERENCES

1. Mahmud Koshgʻariy “Devonu lugʻatit turk” I tom T.; Oʻzb. SSR F.A. nashriyoti 1960.
2. Mahmud Koshgʻariy “Devonu lugʻati-t-turk” S.Mutallibov tarjimasini. Gʻ.Gʻulom nomidagi nashriyot 2017
3. Nizomov A., Raximova G., Rasulova N., “Toponimika” - Sharq nashriyoti - T.: 2012.
4. Nizomov A., Mahmudova Ch., “Maxmud Qoshgʻariyning ilmiy meʻrosini oʻrganish tarixi”. Oʻzbekistonda geografiya fanining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Termiz, 2020.
5. Russel J. Modular Instruction // A Guide to the Design, Selection, Utilization and Evaluation of Modular Materials. Minneapolis; BPC, 1974. – 3 p.
6. Qorayev S. “Geografik nomlar maʼnosi” Oʻzbekiston. 1978.
7. Mahmudova Ch. “Methodology of using toponimic data in geography lessons”. Mental enlightenment scientific-methodological journal Volume 2022 / Issue 5.

